

**HOZIRGI ZAMON PSIXOLOGIYASINING TADQIQOD
METODLARI.**

Umrzoqova Dilsora Xayrullo qizi

Shahrisabz Davlat pedagogika instituti talabasi

Annotsiya: Mazkur maqolada hozirgi zamon psixologiyasining tadqiqot metodlari tahlil qilinadi. Psixologiya fanining ilmiy tekshirish metodlari. Kuzatish. eksperiment: laboratoriya va tabiiy eksperiment. Psixodiagnostika metodlari va ularning qo'llanilishi: suhbat, anketa, faoliyat jarayoni va uning mahsulotlarini tahlil qilish. Test metodi va uning qo'llanilishi haqida ma'lumotlarga ega bo'lasiz.

Kalit so'z: zamonaviy psixologiya, mehnat, taraqqiyot, faoliyat, konkrent qism, obyekt, subyekt.

Annotation: The research methodology of modern psychology is analyzed in this article. Methods of scientific research of psychology. Follow up. experiment: laboratory and natural experiment. Psychodiagnostic methods and their application: interviews, questionnaires, analysis of the process of activity and its products You will receive information about the testing method and its application.

Key words: modern psychology, labor, development, activity, specific part, object, subject.

Аннотация: В статье анализируются методы исследования в современной психологии. Методы научного исследования психологии. Следовать за. эксперимент: лабораторный и натурный эксперимент. Психодиагностические методы и их применение: интервью, анкетирование, анализ процесса деятельности и ее продуктов Вы получите информацию о методе тестирования и его применении.

Ключевые слова: современная психология, труд, развитие, деятельность, конкретная часть, объект, субъект.

Kirish.

Psixologiya fanida tadqiqot metodlari amal qilinadigan asosiy nazariy printsiplarga va psixologiya hal qiladigan konkret vazifalarga bog'liqdir. O'rganilayotgan predmet va hodisalar o'zaro aloqador, bir-birini taqozo etadi, doimo o'zgarishda, rivojlanishda, qarama-qarshi ziddiyatli jarayonlar mavjud deb qarashni tushunish zarurligidan kelib chiqadi. Hozirgi zamon psixologiyasida fanning qanchalik qadimiyligiga qaramay qator hal qilinishi zarur muammolar, turli

oqimlar va olimlar tomonidan ilgari surilayotgan taxmin va farazlar-gipotezalar mavjuddir. Ba'zan bir-birini to'ldiradigan, yoki birini ikkinchisi inkor etadigan kontseptsiyalar va nazariyalar ham bor. Bu singari turli muammo va qarashlarni to'g'ri anglab etish hozirgi zamon psixologiyasining asosiy printsiplarini-determinizm, ong va faoliyat birligi, psixika va ongning faoliyatda rivojlanishi printsiplariga suyanan xolda ilmiy tadqiqotlar olib borilishiga bog'liq hal qilinadi. Hozirgi vaqtda psixologiyada XIX asrda vujudga kelgan, lekin dastlabki ildizlari qadimgi yunon madaniyati tarixiga borib qadaladigan qator nazariyalar bor. Ularning eng ko'p tarqalganlari quyidagilardir: biogenetik nazariya (V. Shtern), sotsiogenetik nazariya (K. Levin), bixevioristik nazariya (E. Torndayk), psixoanaliz nazariyasi (Z. Freyd) va boshqalardir. Psixologiya muammolari turli sohalar bilan bog'liq bo'lishi bilan birga hozirgi kun uchun o'ta dolzarb vazifalarni hal qilish bilan ham bog'liq. Bular jumlasiga ekologiya muammolari, zoopsixologiya va odamshunoslik muammolari, demografik va millatlararo munosabatlar muammosi, insonparvarlik muammolari bilan bog'liq psixologik muammolarni ko'rsatish mumkin. Bulardan tashqari moddiy ishlab chiqarishni ko'paytirish, mehnat samaradorligini oshirish, insoninson, insontexnika, erinson, insoniqlim munosabatlari, oila munosabatlari, o'z joniga qasd qilish, turli jinoyatchilik singarilar ham o'ta muhim bo'lganligidan psixologik tadqiqotlar orqali aniqlanadi va tuzatishlar kiritiladi.

Maqolaning maqsadi: Maqolaning asosiy maqsadi hozirgi zamon psixologiyasining tadqiqot metodlarini yoritish, amaliyotning turli sohalar bilan bog'langanligining tahlil qilish, tarmoqlari tarkibini o'rganish,.

Asosiy qism: Hozirgi zamon psixologiyasining tuzilishi. Psixologiyada inson psixikasini tadqiq qilish metodlarining turli tasnifi mavjud. Har qanday psixologik tadqiqot o'z-o'zini tekshirish, boshqalardagi o'zgarish va rivojlanishni tekshirishdan iborat bo'ladi, shuning uchun ham bularni sub'ektiv va ob'ektiv tadqiqot metodlari deb aytish mumkin. Haqiqiy ilmiy psixologiya psixikani o'rganishning obyektiv metodlaridan foydalanish asosiga ko'rilishi kerak. Hozirgi zamon psixologiyasining ilmiy tadqiqotga nisbatan muhim talabi psixik faktlarini genetik (tarixiy) jihatdan o'rganish printsipigam amal qilishni taqozo etadi. Genetik printsiptning mohiyati shundan iboratki, o'rganilayotgan psixik hodisaga jarayon deb qaraladi va tadqiqotchi uning dialektik rivojlanishining barcha xolatlarini tiklashga, ular bir-birlarini qay yo'sinda olmoshtira olishlarini ko'rish va tushunib etishga harakat qiladi, o'rganilayotgan psixik faktning uning konkret tarixi jihatidan tasavvur etishga o'rinadi. Psixologiyada genetik printsiptdan foydalanish zarurligini P. P. Blonskiy (1884-1941), L. S. Vigotskiy (1896-1934), S.L.Rubinshteyn (1889-1960),

A.N. Leontev (1903-1979) lar o'z asarlarida ta'kidlaganlar. Tadqiqotlarni amalga oshirishning genetik printsipi keyingi yillarda, ayniqsa bolalar psixologiyasida bola shaxsini bo'ylama kesimi (prodolniiy razrez) bo'yicha o'rganish metodi deb atalgan usuli keng qo'llanilmoqda. Bu longityud metodi deb ham aytiladi. Longityud (inglizcha Longitude-dolgota) bir holatni uzoq vaqt va muntazam o'rganish metodidir. Hozirgi zamon psixologiya fani amaliyotning turli sohalari bilan bog'langan, g'oyat tarmoqlanib ketgan fanlar tizimidan iborat. Psixologiya fanining barcha sohalarini quyidagi asoslar bo'yicha klassifikatsiya qilish mumkin:

- 1) konkret faoliyatning psixologik tomoni;
- 2) taraqqiyotning psixologik tomoni;
- 3) insonning (taraqqiyot va faoliyat subyekti sifatida) jamiyatga bo'lgan munosabatining psixologik tomoni.

Konkret faoliyatning psixologik tomoni bo'yicha psixologiya fanining bir qator sohalarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Mehnat psixologiyasi. Mehnat psixologiyasi inson mehnat faoliyatining psixologik xususiyatlarini, mehnatni ilmiy asosda tashqil qilishning psixologik asoslarini o'rganadi. Odamning kasb uchun muhim ahamiyatga ega xususiyatlarini, mehnat malakalarining shakllanishi va taraqqiyoti qonuniyatlarini o'rganish, ishlab chiqarish vositalarining turli xususiyatlari (rangi, mosligi, joylashishi) ish joyi kabilarning kishiga (mehnatkashga) ta'sirini o'rganish mehnat psixologiyasining vazifasiga kiradi.

Injenerlik psixologiyasi. Mehnat psixologiyasining taraqqiyoti jarayonida uning tarkibidan mustaqil ajralib chiqdi. Injenerlik psixologiyasi inson va mashina o'rtasidagi vazifalarni taqsimlash, ularning vazifalarini muvofiqlashtirish kabi muammolarni o'rganadi. Psixologiyaning bu sohasi asosan avtomatlashtirilgan tizimlarni boshqaruvchi operatorlarning faoliyatini o'rganadi. Keyingi yillarda mehnat va injenerlik psixologiyasi tarkibidan avval aviatsiya, keyinchalik **kosmik psixologiya** ajralib chiqdi.

Pedagogik psixologiyasining predmeti ta'lim va tarbiya jarayonlarining qonuniyatlarini o'rganishdan iborat. Bu soha o'quvchilarda tafakkurning tarkib topishini, intellektual faoliyat malakalari va usullarini o'zlashtirishni boshqarish muammolari, talim samaradorligiga ta'sir qiluvchi psixologik omillarni, pedagoglar va o'quvchilar orasidagi munosabatlarni, o'quvchilardagi individual tafovutlar va ularni hisobga olishni, psixik taraqqiyotdan orqada qolgan bolalarga ta'lim va tarbiya berish kabi muammolarni o'rganadi. Pedagogik psixologiyaning ta'lim psixologiyasi, tarbiya psixologiyasi, pedagogik faoliyat psixologiyasi, anamol rivojlangan bolalarga ta'lim va tarbiya berish psixologiyasi kabi ko'plab tarmoqlari mavjud.

Meditina psixologiyasi. Psixologiyaning bu sohasi tibbiyot xodimlarning faoliyatini, bemorlarning xulq-atvorini o'rgandi. Meditsina psixologiyasi quyidagi qismlarga bo'linib ketgan: neyropsixologiya - psixik hodisalarning miyadagi fiziologik tuzilmalarini, asoslarini, mexanizmlarini o'rganadi; psixofarmakologiya - davolashda qo'llaniladigan turli xil dorilarning kishi psixikasiga ta'sirini o'rganadi; psixoterapiya - bemorlarni davolashda turli psixik ta'sirlardan foydalanishni; psixoprofilaktika va psixogigiena - turli psixik kasalliklarning kelib chiqishi, ularni profilaktika qilish masalalarini o'rganadi.

Yuridik psixologiya - huquq tizimida turli tadbirlarni amalga oshirish mobaynida yuzaga keladigan ko'plab masalalarni ko'rib chiqadi. Uning tarmoqlari: sud ishi psixologiyasi, kriminal psixologiya, penitentsiar yoki axloq tuzatish mehnati psixologiyasi.

Harbiy psixologiya - jangovor harakatlar sharoitidagi odamning xulq-atvori, boshliqlar va ularning qo'l ostidagilarning o'zaro munosabatlarining psixologik tomonlari, „psixologik urush“ olib borish va unga qarshi kurash kabi masalalarni o'rganadi.

Sport psixologiyasi - sportchi va uning shaxsiy xususiyatlari, ularni psixologik jihatdan tayyorlash shart-sharoitlari va vositalari, sport musobaqalarini tashqil qilish va o'tkazish kabi masalalarni o'rgandi.

Savdo psixologiyasi - xaridorlar psixologiyasini, talablarini, ularning individual xususiyatlarini hisobga olish, xizmat ko'rsatishning psixologik omillari, reklamalarni tayyorlash, ularning xaridorga ta'siri kabi masalalarni o'rganadi.

Yosh davrlari psixologiyasi - psixik xususiyatlarning yosh davomidagi dinamikasini, psixik taraqqiyot qonuniyatlarini o'rganadi. Yosh davrlari psixologiyasi quyidagi tarmoqlarga ega: bolalar psixologiyasi, o'smirlar psixologiyasi, o'spirin yoshlar psixologiyasi, katta yoshli kishilar psixologiyasi, gerantopsixologiya (qariyalar psixologiyasi).

Sotsial psixologiyasi - (ijtimoiy psixologiya ham deb yuritiladi) - kishilar orasidagi munosabatlar jarayonida yuzaga keladigan psixik hodisalarni o'rganadi. Uning predmeti turli xildagi uyushgan va uyushmagan, rasmiy va norasmiy birlashmalardagi shaxslararo munosabatlarni o'rganish. Sosial psixologiya ijtimoiy kayfiyatni, taqlid qilish hodisasini, "psixologik yuqish"ni, guruhlarda tabaqalanish va liderlik hodisalarini o'rganadi.

Xulosa

Shu tartibda psixologiya fanining boshqa sohalarini ham ko'rib chiqish mumkin. Biz ulardan ba'zilarni sanab o'tish bilan cheklanamiz xalos. Bularga differentsial psixologiya, siyosiy psixologiya, iqtisod psixologiyasi, boshqaruv

psixologiyasi, anomal taraqqiyot psixologiyasi va uning tarmoqlari, qiyosiy psixologiya (zoopsixologiya ham deb yuritiladi) va boshqalar.

Adabiyotlar ro'yxati

1. "Prakticheskaya psixodiagnostika". Metodiki i testi. - Samara, 1998
2. Andreeva G. M. Sosialnaya psixologiya. Uchebnik - M., 1998
3. Vertgeymer M. Produktivnoe mishlenie. - M., 1987
4. Gamezo M. V., Domashenko I. A. Atlas po psixologii. - M., 1986
5. Gippenreyter Yu. B. Vvedenie v obshuyu psixologiyu. Kurs lektsiy. - M., 1996
6. G'oziev E. Oliy maktab psixologiyasi. T. 1997
7. G'oziev E. Psixologiya. T. 1994.
8. Karimova V. M. "Ijtimoiy psixologiya asoslari". - T., 1994
9. Karimova V. M., Akramova F. Psixologiya. Ma'ruzalar matni - T., 2000
10. Karimova V. M. Psixologiya. - T., 2002
11. Klimov E. A. Osnovi psixologii. - M., 1998